MAKTABLARDA FIZIKA FANINI TASHKIL ETISH VA MASALAR YECHISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Saidjonova Sumbula Utkir qizi
Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti
Fizika fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: sumbulasaidjonova6@gmail.com Telefon: +998976751174

Anotatsiya: Mazkur maqolada maktab o`quvchilarining fizika faniga nisbatan qiziqishlarini orttirish uchun ushbu fanga doir masalalarni zamonaviy yondashuv asosida o`rgatish va fizika fanining ta`lim va tarbiyadagi ahamiyati o`z ifodasini topgan. Ushbu maqola mamlakatimizdagi maktablarda fizika fani soatida masalalar ishlashda va fizika fanini o`qitishda oldinga qo`yilgan maqsad va vazifalarga qaratilgan bo`lib, barcha o`rta ta`lim muassasalari o`quvchilari va o`rta maktab o`qituvchilariga mo`ljallangan.

Kalit so`zlar: Intelektual tayyorgarlik, zamonaviy fizika, metodlar, innovatsion usullar, texnik taraqqiyot.

Maktablarda fizika fanlari soatini tashkil qilish, o`quv xonasinig holati, ijtimoiy va ilmiy-texnik tarqqiyot talablariga ko`ra, o`qitilayotgan fanning metadologik masalalariga yetarli darajada e`tabor berishni taqozo etadi. Buning muhimligi shundaki rivojlangan ilmiy predmetlarning jumladan, barcha tabiiy fanlarning metadologik muammolari, ularning o`zlarida bevosita aks etgan. Mamlakatimizda ta`lim tizimi o`zining yangi takomillashtirish bosqichida turibdi. Zamonaviy fizikaning rivojlanish darajasi, uni o`qitishning ta`lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish funksiyalarining samaradorligiga, ilmiy bilish metodlarini ongli va mustahkam egallaganiga bog`liqdir.

Hozirgi jamiyatda har bir inson muvaffaqiyatli hayot tarzini kechirishi uchun fizikadan sifatli bilimga ega bo`lishi bu hozirgi davr talabi hisoblanadi. Mamlakatimizning XXI asrdagi muvaffaqiyati, tabiat resurslaridan samarali foydalanish, ekologik muammolarni yechish, kosmosni o`zlashtirish, texnika, robototexnika va energetikaning rivojlanishi, fan manbalari uchun materiallar hamda zamonaviy texnologiyalarni yaratish kabi barcha yo`nalishlar negizida fizika fani yotadi albatta. Fizika fanidan davr talablariga javob beradigan bilimlarga ega bo`lmasdan Vatanimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli maqsadi va vazifalarini yechishga erishib bo`lmaydi. Shuning uchun maktablarda fizika fanini o`qitish tizimi yaxshi va zamon talablariga javob beradigan darajada bo`lishi kerak. Ammo umumiy o`rta ta`lim maktablarida fizika fanini rivojlantirish va uni o`rganish bilan bog`liq qator muammolar mavjud bo`lib, ularning ba`zilarini quyida sanab o`tsam.

Umumiy o`rta ta`limda jumladan maktablarda fizika xonalari asbob va uskunalar bilan ta`minlash muammosi o`quv dasturlarida berilgan barcha namoyishli tajribalar, uy sharoitida bajarilishi bajarilishi mumkin bo`lgan tajribalar bo`lib, XXI asr fan - texnika taraqqiyoti darajasidagi labaratoriya ishlari va namoyish va tajribalari ko`rsatilishi va bajarilishi uchun zarur labaratoriya va multimedia asbob va uskunalari yaratilishi va fizika labaratoriya xonalarida mavjud bo`lishi lozim. Zamonaviy kompyuterlar, shu jumladan internet tarmog`I bu fizika fanini o`rganishda bir qancha ijobiy hususiyatlarga ega. Davlat ta`lim standarti nafaqat ta`lim mazmunini balki o`qitishning rejalashtirilgan natijalarini, axborotlashgan ta`lim muhitiga ma`lum talablarni joriy qilishning tarkibiy qismi bo`lib, moddiy-texnik va axborot bilan ta`minlanishi hisoblanadi.

Muhim muammolardan yana biri o`rta ta`limda fanlararo bog`lanishning yetishmasligidir. Ya`ni fizkani o`rganishni amalda 6-sinf emas, 7-sinfdan boshlash yaxshiroq natija beradi va fanlararo o`zari ichki bog`lanish yuzaga kelib, uzluksiz va uzviylik prinsipi asosida tayyorlangan fizika ta`limi o`quv dasturi va dasrliklari yaratiladi. Natijada umumiy o`rta ta`lim maktablarida fizikaning mexanika, molekulyar fizika va termodinamika, elektr va magnetizm, optika, atom va yadro, kvant fizikasi elementlari kabi bo`limlari o`quvchilarning bilish imkoniyatlariga moslashtirilgan holda o`qitilishga erishish mumkin. Bunda fizikaning har bir bo`limi o`zining tushuntirish apparatiga ega bo`lib, kop`chilik fizik hodisalarni sifatli qarab chiqishda, ularning ko`pincha takrorlanish imkoniyatiga nuqta qo`yilishi mumkin. Natijada moddiy olam jarayonlari va ob`ektlari o`rtasidagi tabiatda mavjud ichki bog`lanish o`quvchilar uchun aniq bo`lmagan bo`lib, ular e`tiboridan chetda qolishga sabab bo`ladi.

Kadrlar muammosiga to`xtaladigan bo`lsak, bu muammoni ham yo`q deya olmaymiz. Oliy ta`limni bitiruvchilari pedagogik yo`nalishda kerakli pedagogik institutlarda, pedagogic bilim va ko`nikmalarga ega emaslar. Fizika va pedagogic mutaxassisliklar kun sayin o`sishga qodir emas va umumiy o`rta ta`lim muassasalarida pedagog va fizika fani o`qituvchisi talablariga javob bera olmaydi. Natijada, umumiy o`rta ta`lim maktablarida fizika fani o`qituvchilari va o`z sohasining chinaqkam mutaxassislari yetishmaydi. Umumiy o`rta ta`lim maktablari fizika ta`limi nafaqat kelgusida fizikani professional kasb qilib olgan mutaxasisga zarur, balki o`z kelajagini oldindan ishonchli, aniqq to`g`ri harakat va samarali aytib bera oladigan va o`ylaydigan har qanday madaniyatli inson uchun zarur deb hisoblayman. Fizikani o`qitish va o`rganish o`quvchilarni fizikadan olgan bilinlarini amaliyotga va boshqa sohalarda qo`llashga tayyorgarliklarini ta`minlaydi. Shuningdek, boshqa fanlarni mazmuniga va o`qitishda, o`quvchilarning intellektual tayyorgarliklariga ta`sir qiladi. Ushbu konsepsiyaning maqsadi-mamalakatimiz umumiy o`rta ta`lim maktablari fizika ta`lim saviyasini hamdo`stlik va rivojlangan mamlakatlar umumiy o`rta ta`lim maktablarining fizika ta`limi darajasiga olib chiqishda yordam beradi. Masalan, har bir o`quvchi uchun asosiy bilimlarni egallashni ta`minlash, jamiyat va ta`lim oluvchilar talabilari bilan muvofiq ravishda fizika ta`limi o`quv dasturi mazmunini takomillashtirish va hokazolar.

Dars jarayonini tashkil qilishda o`quvchilarning darslik bilan mustaqil ishlashlariga katta e`tibor qaratilishi kerak. Darslik bilan ishlash jarayonida o`rganilgan hodisa va jarayonlarni tushunish, material ichidan mantiqan bog`liqlikni ko`rish, matndan asosiy mazmunni ajratish ko`nikmasini shakllantirish zarur. Ushbu holat esa o`qituvchidan har doim darss o`tish metodikasini o`ylab tashkil etishni taqazo qiladi. Yuqori sinflarda o`quv materiallarini suhbat shaklida yoki ma`ruza shaklida o`quv muammolarini ilgari surish orqali o`quvchiga yetqazish ko`proq natija beradi albatta. O`quv eksperimentlaridan keng foydalanishda o`quvchilarni mustaqil ishlashga undash maqsadga muvofiqdir. Darsning asosiy vaqti yangi mavzuni mustahkamlashga va tushuntirishga bag`ishlangan bo`lib, o`quvchilar bilimini nazorat qilish va takrorlash usullariini takomillashtirish zarur. Bularning hammasi tayanch vazifani qilishga va fizika fanining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasinning “Таьлим тогрисидаги” qonuni. Oliy ta`lim me`yoriy hujjatlari-T.Sharq, 2001.
2. Saidaxmedov N. S. Yangi pedagogik texnologiyalar-T., Moliya. 2003-yil.
3. Usmonov “ Fizika tarixidan metodik qo‘llanma ”, “ O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti ”, Toshkent. 2003-yil.
4. Afrina E.I; Fizika darslarida elektorn pochtadan foydalanish. Internet ta`lim masalalari - 2003. 1-son.